



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2431-3
2025 - yil 01 - May

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG'I**

**“Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt
shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomni
tasdiqlash haqida”gi buyruqqa o'zgartirishlar kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-sentabrdagi O'RQ-957-son “Ma'muriy islohotlar doirasida ta'lim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi va 2025-yil 25-fevraldagi O'RQ-1038-son “Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-avgustdagi 489-son “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2012-yil 28-dekabrdagi 508-son “Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug'iga (ro'yxat raqami 2431, 2013-yil 26-fevral) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 9-son, 120-modda) ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir
11-Aprel 2025-yil
125-son



SHARIPOVKONGRATBAY
AVEZIMBETOVICH

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining 2025-yil 11-apreldagi 125-son buyrug'iga
ILOVA

“Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqqa kiritilayotgan o'zgartirishlar

1. Buyruqda:

Buyruqning nomi va 1-bandidagi “kasb-hunar ta'limi muassasalarida” degan so'zlar “professional ta'lim tashkilotlarida” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-avgustdagi 489-son “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi qaroriga muvofiq buyuraman.”.

2. Nizomda:

1) Nizomning nomi, 5-bobning nomi, 49 va 57-bandlardagi “kasb-hunar ta'limi muassasalarida” degan so'zlar “professional ta'lim tashkilotlarida” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

2) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Nizom oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlarida (bundan buyon matnda ta'lim tashkilotlari deb yuritiladi) o'qitishning to'lov-kontrakt (bundan buyon matnda kontrakt deb yuritiladi) shaklini belgilash va undan kelib tushadigan mablag'larni taqsimlash tartibini belgilaydi.”;

3) 1-banddagi “muassasalariga” va “muassalarida” degan so'zlar tegishli ravishda “tashkilotlariga” va “tashkilotlarida” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

4) 2-banddagi “muassasalariga” degan so'z “tashkilotlariga” degan so'z bilan almashtirilsin;

5) 3-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Xorijiy fuqarolarni ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 4-avgustdagi 169-son “Xorijiy fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish va o'qitish tartibini takomillashtirish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq kontrakt asosida amalga oshiriladi.”;

6) 4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4. Oliy ta'lim tashkilotlarida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunining 12-moddasiga asosan kontrakt asosida amalga oshiriladi.”;

7) 2 va 3-boblarning nomi, 12, 15, 20, 42 va 46-bandlardagi “muassasalarida” degan so'z “tashkilotlarida” degan so'z bilan almashtirilsin;

8) 5-bandda:

birinchi xatboshidagi “muassasalarida” degan so'z “tashkilotlarida” degan so'z bilan almashtirilsin;
ikkinchi va uchinchi xatboshilardagi “muassasasining” degan so'z “tashkilotining” degan so'z bilan almashtirilsin;

9) 8 va 9-bandlardagi “muassasasining” degan so'z “tashkilotining” degan so'z bilan almashtirilsin;

10) 10-banddagi “muassasasining” va “muassasasiga” degan soʻzlar tegishli ravishda “tashkilotining” va “tashkilotlariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

11) 11-banddagi “muassasasiga” degan soʻz “tashkilotiga” degan soʻz bilan almashtirilsin;

12) 13 va 14-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“13. Oliy taʼlim tashkilotlarida kontrakt asosida oʻqitishning toʻlov miqdori Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 419-son “Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy taʼlim tashkilotlarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtirish tartibini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq belgilanadi.

14. Xorijiy fuqarolarni oliy taʼlim tashkilotlarida kontrakt asosida oʻqitishning toʻlov miqdori Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 4-avgustdagi 169-son “Xorijiy fuqarolarni Oʻzbekiston Respublikasi taʼlim muassasalariga oʻqishga qabul qilish va oʻqitish tartibini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va taʼlim tashkilotlariga ega boʻlgan boshqa vazirlik va idoralar bilan kelishgan holda Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining taklifi asosida Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadi.”;

13) 17-banddagi “muassasalari” va “muassasalarini” degan soʻzlar tegishli ravishda “tashkilotlari” va “tashkilotlarini” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

14) 19-bandning birinchi xatboshisi, 29-bandning birinchi va ikkinchi xatboshilari hamda 31-banddagi “muassasasi” degan soʻz “tashkiloti” degan soʻz bilan almashtirilsin;

15) 24-bandda:

birinchi xatboshidagi “muassasalariga” degan soʻz “tashkilotlariga” degan soʻz bilan almashtirilsin;

ikkinchi va uchinchi xatboshilardagi “muassasasining” degan soʻz “tashkilotining” degan soʻz bilan almashtirilsin;

16) 26-bandning birinchi xatboshisi, 4-bobning nomi, 39, 40 va 44-bandlardagi “muassasalari” degan soʻz “tashkilotlari” degan soʻz bilan almashtirilsin;

17) 27-bandning birinchi xatboshisidagi “muassasasining” va “muassasasi” degan soʻzlar tegishli ravishda “tashkilotining” va “tashkiloti” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

18) 28 va 32-bandlardagi “muassasasi” va “muassasasiga” degan soʻzlar tegishli ravishda “tashkiloti” va “tashkilotiga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

19) 34-bandda:

birinchi, sakkizinchi va oʻn toʻrtinchi xatboshilardagi “muassasasi” degan soʻz “tashkiloti” degan soʻz bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “muassasalarining” degan soʻz “tashkilotlarining” degan soʻz bilan almashtirilsin;

uchinchi, oʻn ikkinchi va oʻn uchinchi xatboshilardagi “muassasalari” degan soʻz “tashkilotlari” degan soʻz bilan almashtirilsin;

toʻrtinchi xatboshidagi “muassasalarida” degan soʻz “tashkilotlarida” degan soʻz bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshidagi “muassasasining” degan soʻz “tashkilotining” degan soʻz bilan almashtirilsin;

20) 36, 37 va 60-bandlardagi “muassasalarining” degan soʻz “tashkilotlarining” degan soʻz bilan almashtirilsin;

21) 38-banddagi “muassasasi” va “muassasasining” degan soʻzlar tegishli ravishda “tashkiloti” va “tashkilotining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

22) 41-banddagi “muassasalarining” va “muassasalari” degan soʻzlar tegishli ravishda “tashkilotlarining” va “tashkilotlari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

23) 43-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“43. Oliy taʼlim tashkilotlari tomonidan oʻqitishning kontrakt shaklidan tushgan mablagʻlar boʻyicha daromadlar va xarajatlarning hisobotlarini tuzish, tasdiqlash va taqdim qilish Oʻzbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (3-sonli BHS) “Budget hisoboti”ga (roʻyxat raqami 3124, 2019-yil 18-yanvar) muvofiq amalga oshiriladi.”;

24) 45-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“45. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi 466-son “Oʻzbekiston Respublikasida uzluksiz boshlangʻich, oʻrta va oʻrta maxsus professional taʼlim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq professional taʼlim dasturlarida oʻquvchilar toʻlov-kontrakt asosida taʼlim olishlari mumkin.”;

25) 47-banddagi “kasb-hunar taʼlimi muassasalarida” degan soʻzlar “professional taʼlim tashkilotlarida” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

26) 6-bobning nomi, 54, 55, 59-bandlardagi “kasb-hunar taʼlimi muassasalari” degan soʻzlar “professional taʼlim tashkilotlari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

27) 50-bandda:

birinchi, yettinchi va oʻn ikkinchi xatboshilardagi “kasb-hunar taʼlimi muassasasi” degan soʻzlar “professional taʼlim tashkiloti” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi, oʻn va oʻn birinchi xatboshilardagi “kasb-hunar taʼlimi muassasalari” degan soʻzlar “professional taʼlim tashkilotlari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “kasb-hunar taʼlimi muassasalarida” degan soʻzlar “professional taʼlim tashkilotlarida” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

beshinchi xatboshidagi “kasb-hunar taʼlimi muassasasining” degan soʻzlar “professional taʼlim tashkilotining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

28) 52-banddagi “kasb-hunar taʼlimi muassasalarining” degan soʻzlar “professional taʼlim tashkilotlarining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

29) 53-banddagi “kasb-hunar taʼlimi muassasasi” va “kasb-hunar taʼlimi muassasasining” degan soʻzlar tegishli ravishda “professional taʼlim tashkiloti” va “professional taʼlim tashkilotining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

30) 56-banddagi “kasb-hunar taʼlimi muassasalarining” va “kasb-hunar taʼlimi muassasalari” degan soʻzlar tegishli ravishda “professional taʼlim tashkilotlarining” va “professional taʼlim tashkilotlari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

31) 58-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“58. Oʻrta maxsus, professional taʼlim tashkilotlari tomonidan oʻqitishning kontrakt shaklidan tushgan mablagʻlar boʻyicha daromadlar va xarajatlarning hisobotlarini tuzish, tasdiqlash va taqdim qilish Oʻzbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (3-sonli BHS) “Budget hisoboti”ga (roʻyxat raqami 3124, 2019-yil 18-yanvar) muvofiq amalga oshiriladi.”;

32) 61-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“61. Taʼlim olishning toʻlov-kontrakt asosida kelib tushadigan mablagʻlarining toʻgʻri sarflanishi va mablagʻlardan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni tasarrufida taʼlim tashkilotlari boʻlgan vazirliklar va idoralar, Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi, uning hududiy organlari va joylardagi iqtisodiyot va moliya organlari qonunchilik tomonidan taqdim etilgan vakolatlarga muvofiq amalga oshiradi.”.